

**Muddatli depozitning asosiy shartlari to'g'risidagi axborot**

**VARAQASI\***

Tijorat bankining nomi, rasmiy veb-sayti, telefon raqamlari	“Ipoteka-bank” ATIB, www.ipotekabank.uz Tel.: Kontakt markaz (78) 150-21-22, 1233
---	--

**1-bo'lim. Depozitning asosiy shartlari**

1. Depozit nomi	«Prime-180»
2. Depozitning valyutasi	Milliy valyuta
3. Depozit bo'yicha yillik foiz stavkasi	Bankda o'rnatilgan FTP foiz stavkasi miqdoriga bog'liq. 14,43%
4. Depozit bo'yicha hisoblangan foizlarni kapitalizatsiyasi mavjudligi (hisoblangan foizni asosiy mablag'ga qo'shib qayta foiz hisoblash)	Mavjud emas
5. Depozitning muddati	180 kun
6. Depozitga qo'yiladigan mablag'ning eng kam miqdori (agar mavjud bo'lsa)	50,0 mln. so'm
7. Depozit bo'yicha foizlarni to'lash davriyligi	Har kuni avtomat tarzda hisoblanadi va keyingi oyning 1 - sanasida o'tkazib beriladi (ish kunida)
8. Depozitni rasmiylashtirish usuli (onlayn yoki bankka tashrif buyurish orqali)	Onlayn, Internet-bank tizimi orqali
9. Qo'shimcha mablag' kiritish imkoniyati	Mavjud emas
10. Avtouzaytirish (Depozit muddati tugaganda Depozit muddatini bank tomonidan bir tomonlama uzaytirish)	Mavjud emas
11. Depozitni muddatidan oldin to'liq qaytarish imkoniyati mavjudligi	Mavjud, bunda to'langan foizlar qayta hisoblanadi va omonat summasidan ushlab qolinadi
12. Boshqa shartlar	Bank depozit summasiga foizlar depozit bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u depozitiga qaytarilgan yoki

	boshqa asoslarga ko'ra depozitchining hisobvarag'idan ko'chirilgan kundan oldingi kungacha hisoblanadi
--	--

## 2-bo'lim. Boshqa muhim shartlar

1. Depozitga qo'yilgan pul mablag'larini Depozit muddati tugagunga qadar qisman yechib olish imkoniyatining mavjudligi	Mavjud emas
2. Depozit shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tartibi	To'langan foizlar qayta hisoblanadi va omonat summasidan ushlab qolinadi  Depozit mablag'lari 90 kundan kam muddat turgan bo'lsa foizlar to'lanmaydi, 90 kun va undan ortiq, lekin 180 kundan kam bo'lgan muddatda turgan mablag'lar uchun yillik 7,43% hisobidan foizlar summasi to'lanadi

Banklardagi omonatlar O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq 200 million so'mgacha kafolatlanadi.

### Omonat qo'yishga rozi bo'lishdan oldin diqqat bilan o'rganib chiqing!

Siz omonatning shartlari, omonat bo'yicha foiz daromadlari va hisob-kitoblar tartibi to'g'risida, shuningdek huquqlaringiz va majburiyatlaringiz, Sizga tushunarsiz bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan bankdan to'liq va batafsil ma'lumot olishga haqlisiz.

Agar Sizda shikoyatlar mavjud bo'lsa, u holda Siz murojaatingizni +998 (78) 150-11-22 raqamli telefonga yoki Toshkent shahar, Shaxrisabz ko'chasi, 30-uy manzilga yoki info@ipotekabank.uz elektron manzilga jo'natishingiz mumkin.

**AXBOROT VARAQASINING TO'G'RILIGI  
VA HAQIQIYLIGI TASDIQLANADI.**

\_\_\_\_\_  
(bank mutaxassisining F.I.Sh. va lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(to'ldirilgan sana)

\*Mazkur varaqa omonat shartnomasi yoki omonat olish uchun buyurtmanoma o'rnini bosmaydi, aksincha turli banklarning omonat shartlarini taqqoslashga va kerakli tanlovni amalga oshirishga yordam beradi.